

**ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/29.10.2021.K/T.60.05 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

TO‘LAKOV NURILLA QOSIMOVICH

**FERROTSENKARBON VA AMINOBENZOY KISLOTALAR ASOSIDA
BIOLOGIK FAOL BIRIKMALAR OLISH HAMDA ULARNI SINFLASH**

02.00.09 – Tovarlar kimyosi

**KIMYO FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Andijon – 2025

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Содержание автореферата диссертации доктора наук (DSc)
Contents of the abstract of dissertation doctor of science (DSc)

To‘lakov Nurilla Qosimovich

Ferrotsenkarbon va aminobenzoy kislotalar asosida biologik faol birikmalar olish hamda ularni sinflash 3

Тулаков Нурилла Касимович

Получение и классификация биологически активных соединений на основе ферроценкарбоновой и аминобензойных кислот ... 29

Thulakov Nurilla Kasimovich

Preparation and classification of biologically active compounds based on ferrocene carboxylic and aminobenzoic acids 55

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Опубликованный список дел
List of ‘ublished works..... 59

**ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/29.10.2021.K/T.60.05 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

TO‘LAKOV NURILLA QOSIMOVICH

**FERROTSENKARBON VA AMINOBENZOY KISLOTALAR ASOSIDA
BIOLOGIK FAOL BIRIKMALAR OLISH HAMDA ULARNI SINFLASH**

02.00.09 – Tovarlar kimyosi

**KIMYO FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Andijon – 2025

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.4.DSc/K203 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi Andijon davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-saxifasida (www.adu.uz) va "ZiyoNet" Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi: **Asqarov Ibrohim Rahmonovich**
kimyo fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: **Abdullayev Shavkat Voxidovich**
kimyo fanlari doktori, professor;
Abdug'aniev Baxtiyorjon Yormuxammatovich
kimyo fanlari doktori, professor.
To'rayev Zokirjon
texnika fanlari doktori, professor,

Yetakchi tashkilot: **Andijon davlat tibbiyot instituti**

Dissertatsiya himoyasi Andijon davlat universiteti huzuridagi DSc.03/29.10.2021.K/T.60.05 raqamli Ilmiy Kengashning 2025 yil "30" 06 soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 170100 Andijon sh., Universitet ko'ch. 129. Tel.: (99877)223 88 30, faks:(99874) 223 84

Dissertatsiyasi bilan Andijon davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____ raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 170100, Andijon sh., Universitet ko'ch. 129. Tel.: (99877) 223 88 30, faks : (99874) 223 84 33) E-mail: konferensiya11@mail.ru)

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil "20" 06 kuni tarqatildi.
(2025 yil "20" 06 dagi 53 raqamli reestr bayonnomasi)



Sh.M.Kirgizov
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash
raisi, k.f.d., professor

M.M.Mo'minjonov
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, k.f.d., dotsent

M.M.Xojimatov
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar
raisi, k.f.d., professor

Kirish (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda aholi soni shiddat bilan o'sayotgan, iqtisodiyot jadal sur'atlar bilan rivojlanayotgan hozirgi sharoitda qishloq xo'jaligi mahsulotlariga bo'lgan talab ham toboro ortib bormoqda. Bu borada, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini unumini oshirish xususiyatiga ega bo'lgan yangi turdagi bezarar, o'simliklarning o'sishi va rivojlanishiga kompleks ta'sir etuvchi, hosildorligini oshiruvchi yangi turdagi biologik faol biostimulyatorlarni sintez qilish, ularning tarkibi, tuzilishi va xossalarini eng zamonaviy qurilmalar va usullar yordamida aniqlash alohida ahamiyatga ega. Shuning uchun ham, o'simlik hujayralaridagi moddalar almashinuvi reaksiyalarini katalitik tezlashtiradigan metallorganik birikmalar asosida yangi turdagi birikmalarni sintez qilish, olingan moddalar asosida suvda eruvchan biostimulyatorlar ishlab chiqish, ularning biologik faolligini laboratoriya va dala sharoitida isbotlash, hamda yangi biostimulyatorlarga tashqi iqtisodiy faoliyatdagi tovarlar nomenklaturasi asosida yangi xalqaro tovar kod raqamlarini ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Jahonda qishloq xo'jaligi ekinlarining o'shishi, rivojlanishi va hosildorligini oshirish xususiyatiga ega bo'lgan, inson organizmi uchun bezarar fiziologik faol birikmalarni sintez qilish, ularning tarkibi va tuzilishini aniqlash borasida bir qator ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu borada, mahalliy xom ashyolar asosida aholining birlamchi ozuqa mahsulotlarini yetishtiradigan qishloq xo'jaligi o'simliklarining kasallikka chiqamliligi va hosildorligini oshiradigan, ekologik toza, sifat va xavfsizlik talablariga javob beradigan, tarkibida temir, mis, zux, kaliy, natriy kabi o'simlik hayot faoliyati uchun zarur biogen elementlar saqlagan biostimulyatorlarni sintez qilishga alohida ahamiyat berilmoqda. Yetishtirilayotgan mahsulotlarning xalqaro bozorlardagi o'rmini mustahkamlash uchun qo'shimcha choralar ko'rishni talab qilmoqda. Shundan kelib chiqqan holda, metallorganik birikmalarning tipik vakili bo'lgan ferrotsen va uning hosilalari asosida qishloq xo'jaligi ekinlari uchun yuqori biologik faollikka ega bo'lgan biostimulyatorlarning yangi avlodini yaratish, olingan birikmalarni kimyoviy tarkibi, tuzilishi va xossalarini aniqlash, hamda tashqi iqtisodiy faoliyatdagi tovarlar nomenklaturasi bo'yicha sinflash muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Respublikamizda kimyo sanoatini yanada rivojlantirishga jumladan, qishloq xo'jaligining asosiy tarmoqlaridan biri bo'lgan agrokimyo sohasiga alohida e'tibor berilib, amalga oshirilgan dasturiy chora-tadbirlar asosida ayrim metallorganik birikmalar asosida biologik faol moddalar olish va ularni amaliyotga joriy etishda muayyan natijalarga erishilmoqda. 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida¹ "Qishloq ho'jaligini ilmiy asosda intensiv rivojlantirish orqali dehqon va fermerlar daromadini kamida 2 barobarga oshirish, qishloq ho'jaligini yillik o'sishini 5 foizga yetkazish, mahsulot tannarxini 30-35 foizga qisqartirish..." muhim bo'lgan vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalardan kelib chiqqan holda, paxta va g'alladan yuqori hosil olish omili

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni.

hisoblangan biologik faol moddalar yaratish, jumladan tarkibida ferrotsen saqlagan ferrotsenkarbon kislota asosida biostimulyatorlarning yangi avlodini sintez qilish, ularga tashqi iqtisodiy faoliyat tovarlar nomenklaturasi bo'yicha tegishli tovar kodlari ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Ushbu dissertatsiya ishi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28-yanvardagi PF-60-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan 2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi Farmoni, 2019-yil 23-oktyabrdagi PF-5853-son "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 3 fevraldagi PF-6159-son Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 6-martdagi 115-sonli qarori hamda boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining VII. "Kimyo texnologiyalar va nanotexnologiyalar" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi².

Ferrotsenkarbon va aminobenzoy kislotalar hosilalari sinteziga yo'naltirilgan ilmiy izlanishlar dunyoning yetakchi ilmiy markazlarida hamda oliy ta'lim muassasalarida, jumladan Institut des Sciences Chimiques de Rennes (Frantsiya), Research Institute of Elemento-Organik Chemistry, State Key Laboratory of Elemento-Organik Chemistry, Nankai University, Tianjin (Xitoy), Department of Chemistry, Tulane University, (AQSH), Faculty of Food Technology and Biotechnology, University of Zagreb (Xorvatiya), Belarus milliy fanlar akademiyasining Fizik-organik kimyo instituti (Minsk, Belarus), Rossiya fanlar akademiyasi A.N.Nesmeyanov nomidagi Elementoorganik birikmalar kimyosi instituti, Moskva davlat universiteti Kimyo fakulteti (Rossiya), Ukraina Milliy FA, Department of Chemistry, University of Saskatchewan (Kanada), the contents by NLM or the National Institutes of Health (Chexiya), (Technische Universitat Chemnitz, Faculty of Natural Sciences, Institute of Chemistry, Germaniya), Tojikiston milliy universiteti, O'zbekiston Respublikasi FA O'simlik moddalari kimyosi instituti va Bioorganik kimyo institutida olib borilmoqda.

Ferrotsenkarbon va aminobenzoy kislotalar hosilalarini sintez qilishga oid jahonda olib borilgan tadqiqotlar natijasida qator, jumladan, quyidagi ilmiy natijalar olingan: Ferrotsenkarbon kislota hosilalari sintez qilingan, tarkibi, elektron xususiyatlari va reaksiya qobiliyati, shuningdek C-H bog'ini faollashtirishi aniqlangan (Institut des Sciences Chimiques de Rennes, Frantsiya), ferrotsenkarbon kislotani tetragidrofuran bilan reaksiyasi natijasida ditsiklogeksiloferrotsenilmochevina sintez qilingan (Research Institute of Organoelement

² Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi: <https://univ-rennes.hal.science/hal-> <https://cui.nankai.edu.cn:> <https://sse.tulane.edu/chem> [https://hrcak.srce.hr/file/;](https://hrcak.srce.hr/file/) <https://asio.basnet.by/organization> ; [https://ineos.ac.ru;](https://ineos.ac.ru) <http://inas.nbuv.gov.ua/article:> [https://www.mcgill.ca/;](https://www.mcgill.ca/) <https://www.researchgate.net/publication/> ; [https://www.tu-chemnitz.de;](https://www.tu-chemnitz.de) <https://tnu.tj/index.php/ru/glavnaja/> ; [https://uzicps.uz/ru;](https://uzicps.uz/ru) <https://biochem.uz/> va boshqa manbalar asosida ishlab chiqilgan.

Chemistry, State Key Laboratory of Organoelement chemistry, Nankai University, Tianjin Xitoy), ferrotsenning mono- va dialmashigan aromatik hosilalari olinib, ayrim fizik-kimyoviy xossalari aniqlangan (Department of Chemistry, Tulane University, AQSH), Aminoferrotsenkarbon kislota ikki xil yo'nalishda samarali sintez qilingan (Faculty of Food Technology and Biotechnology, University of Zagreb Xorvatiya), metallotsenlarning geterotsiklik hosilalari sintez qilingan (Belarus MFA Fizik-organik kimyo instituti, Minsk, Belarus), ferrotsenning ayrim aromatik hosilalarining fizik-kimyoviy xossalari aniqlangan (Rossiya FA Elementoorganik birikmalar kimyosi instituti); ferrotsenkarbon kislotasi asosida ferrotsenning folat kislotasi bilan kon'yugati olingan (Ukraina Milliy FA), ferrotsenkarbon kislota va ferrotsenfenol hosilalarining ayrim tuzlari olingan (Department of Chemistry, McGill University, Kanada), p-aminobenzoy kislota hosilalari asosida mikroblarga qarshi vositalar olingan (the contents by NLM or the National Institutes of Health, Chexiya), ferrotsenning mono-, di- va polialmashigan alifatik o'rinbosarlar tutgan hosilalari sintez qilingan (Technische Universitat Chemnitz, Faculty of Natural Sciences, Institute of Chemistry, Germaniya); mono- va dialmashigan ferrotsenbenzoy kislotalarning ishqoriy metallar bilan tuzlari sintez qilingan, hamda ularning biologik faolliklari aniqlangan (Tojikiston milliy universiteti), ayrim ferrotsenbenzoy kislotalarning propargil spirti bilan hosilalari sintez qilingan (O'zbekiston Respublikasi FA O'simlik moddalari kimyosi instituti).

Ferrotsenkarbon va aminobenzoy kislotalar asosida biologik faol preparatlar olish bo'yicha qator, jumladan, quyidagi ustuvor yo'nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda: ferrotsenkarbon kislotaning aromatik, alifatik hosilalarini sintez qilish va fizik-kimyoviy hossalari hamda biologik faolliklarini aniqlash; olingan birikmalar asosida qishloq ho'jaligi ekinlarini unishi va kompleks rivojlanishiga ijobiy ta'sir etuvchi, hamda hosildorligini oshiruvchi yangi turdagi biostimulyatorlar olish, ularni kimyoviy tarkibiga asoslangan holda tashqi iqtisodiy faoliyatdagi tovarlar nomenklaturasi asosida sinflash.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Ferrotsen dastlab Poson va Kili tomonidan 1951 yilda sintez qilingan. Ferrotsenga xos bo'lgan noyob fizik-kimyoviy xossalari keyinchalik olimlarni o'ziga jalb etib, bu sohada AQSH, Buyuk Britaniya, Rossiya, Yaponiya kabi mamlakatlarda chuqur izlanishlar olib borildi.

Rossiyaning Elementoorganik birikmalar kimyosi ilmiy tadqiqot institutida (INEOS) A.N.Nesmeyanov, V.A.Sazonova, N.S.Kochetkova, Moskva davlat universitetida E.G.Perevalova, M.D.Reshetova, AQSHda R.Vudvord, Buyuk Britaniyada D.Uilkinson, Germaniyada G.Shmitt, S.Ozman, E.Fisher, sobiq Yugoslaviyada V.Rapis, Yaponiyada T. Kondo, Italiyada S.Kalur, S.Toma, Frantsiyada G.Tainturier, Ukrainada I.Demchenko, N.Galatenko kabi olimlar ferrotsen va ferrotsenkarbon kislotaning turli hosilalarini sintez qildilar.

O'zbekistonning kimyo fani sohasida erishgan e'tiborga loyiq yutuqlaridan biri bu "Tovarlar kimyosi" fanining yaratilishidir. Hozirgi vaqtda fan bo'yicha nafaqat O'zbekistonda, balki, dunyo miqyosida ham keng qamrovli ilmiy izlanishlar olib borilayotganligi ixtisoslikni nechog'li dolzarbligini ko'rsatib turibdi.

O'zbek kimyogar olimlari ham "Tovarlar kimyosi" ixtisosligi doirasida

ferrotsen va uning hosilalari ustida bir qancha diqqatga sazovor ilmiy tadqiqot ishlarini olib borganlar. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan ixtirochi va ratsionalizatorlar kimyo fanlari doktori, professorlar A.G'.Mahsumov, I.R.Asqarov va ularning shogirdlari; kimyo fanlari nomzodlari, dotsentlar T.Nasriddinov, S.Karimov, A.Jo'raev, kimyo fanlari doktori professor Sh.M.Qirg'izov, texnika fanlari doktori, professor X.Isaqov, kimyo fanlari doktori professor M.M.Xojimatov, kimyo fanlari doktorlari M.M.Mo'minjonov, O.SH.Abdullaevlar, kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktorlari Q.Q.Otaxonov, F.S.Abdugapparov, Z.X.Abduraimov, G'.N.Madraximovlar ham bu borada diqqatga sazovor ishlarni amalga oshirganlar. Aminobenzoy kislotalar hosilalari ustida A.Brel, Ye.Joglo, J.Djamanbaev, Yu.Abdurashitova, R.Sarimzakova, U.Gapurov, L.Niyazov kabi olimlar ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirganlar.

Ferrotsenning suvda eruvchan aromatik hosilalari sintezi va ular asosida biologik faol moddalar yaratish, ularni turli xil sharoitlarda sinovlardan o'tkazish va amaliyotga joriy etish borasida izlanishlar olib borilganligi ilmiy adabiyotlarda keltirilgan, ammo tarkibida ferrotsenkarbon va aminobenzoy kislota izomerlari saqlovchi aromatik birikmalari hamda ularning suvda eruvchan hosilalari sintezi kam o'rganilgan bo'lib, ular kimyoviy tarkibi bo'yicha tovarlar nomenklaturasida sinflarga ajratilmagan.

Mazkur dissertatsiya ishi ferrotsenkarbon kislotaning aminobenzoy kislota izomerlari bilan reaksiyasini amalga oshirish, sintez qilingan birikmalarni tarkibi va tuzilishini, xossalarini zamonaviy fizik-kimyoviy usullar yordamida o'rganish, ularning suvda eruvchan hosilalari asosida biologik faol moddalar yaratish, ularning biostimulyatorlik xossalarini tadqiq etgan holda kimyoviy tarkibi asosida sinflash, TIF TN bo'yicha tegishli kod raqamlari tavsiya etish, ferrotsenkarbon kislotaning aminobenzoy kislota hosilalari tutuvchi tovarlar uchun tavsiya etilgan kod raqamlarini amaliyotga joriy etish kabi muammolarni yechishga yo'naltirilgan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Andijon davlat universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining "Xalq xo'jaligi va xalq tabobatida foydalaniladigan tovarlar olish va ularni sinflash" yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi ferrotsenkarbon va *o*-, *m*-, *p*-aminobenzoy kislotalar asosida yangi turdagi biologik faol birikmalar sintez qilish, hamda ularning ayrim ishqoriy metallar ionlari tutuvchi hosilarini olish, olingan birikmalarni fizik-kimyoviy xossalarini aniqlash, hamda kimyoviy tarkibi asosida sinflashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Monoatsetilferrotsen olish usulini takomillashtirib, uning tuzilishini IQ- va YaMR-spektroskopiya, mass-spektrometriya usullari yordamida tahlil qilish hamda u asosida ferrotsenkarbon kislota sintez qilish;

ferrotsenkarbon va aminobenzoy kislotalar asosida yangi birikmalar sintezini amalga oshirish;

sintez sharoitlarini optimallashtirish maqsadida reaksiya mexanizmini kvant-kimyoviy hisoblash vositasida tadqiq etish;

ferrotsenkarbon va aminobenzoy kislotalar asosida ayrim ishqoriy metallar bilan hosilalarini olish;

olingan birikmalarning tarkibi va tuzilishini, IQ-spektroskopiya, mass-spektrometriya usullari yordamida tahlil qilish;

olingan moddalar orasidan biologik faolligi yuqori bo'lganlarini laboratoriya sharoitida aniqlash;

biologik faolligi yuqori bo'lgan moddalarni dala amaliyoti sinovlaridan o'tkazish;

ferrotsenkarbon va aminobenzoy kislotalar asosida olingan birikmalarning kimyoviy tarkibiga asoslangan holda Xalqaro iqtisodiy munosabatlarda qo'llaniladigan tovar kodlari ishlab chiqish va amaliyotda foydalanish uchun tavsiya etish.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida ferrotsen, atsetilferrotsen, ferrotsenkarbon kislota, aminobenzoy kislota izomerlari va ularning suvda eruvchan hosilalari olingan.

Tadqiqotning predmeti ferrotsenkarbon va aminobenzoy kislota izomerlari asosida biologik faol moddalar sintezini amalga oshirish, olingan birikmalarning paxtaga nisbatan biostimulyatorlik xossalarini aniqlash va ularni kimyoviy tarkibi asosida tegishli sinflarga ajratish hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishida sintez, analiz, xromatografiya, IQ-, YaMR-spektroskopiya va mass-spektrometriya, moddalarning xossalarini kvant-kimyoviy hisoblash hamda biologik faollikni aniqlash usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilk bor diazotirlash reaksiyasi natijasida ferrotsenkarbon va aminobenzoy kislotalar asosida dialmashigan *o*-, *m*-, *p*-(2`-karboksiferrotsenil)benzoy kislota sintez qilingan;

ferrotsenkarbon va aminobenzoy kislotalar orasidagi *o*-, *m*-, *p*-(2`-karboksiferrotsenil)benzoy kislotalar hosil bo'lish reaksiyalarining amalda sodir bo'lish mexanizmlari nazariy kvant-kimyoviy hisoblash metodi yordamida isbotlangan;

ferrotsenkarbon va aminobenzoy kislotalarning yangi sintez qilingan hosilalarining kimyoviy tarkibi, tuzilishi va xossalari kvant-kimyoviy hisoblash, yupqa qatlamli va ustunli xromatografiya, potentsiometrik titrlash, IQ-, YaMR-spektroskopiya va mass-spektrometriya metodlari yordamida aniqlangan;

olingan yangi moddalarning suvda eruvchan tuzlari chigitning unib chiqishi va g'o'zaning kompleks rivojlanishiga ijobiy ta'sir etib, paxta hosildorligini oshirish xususiyati laboratoriya va dala sharoitida isbotlangan;

ferrotsenkarbon va aminobenzoy kislotalar asosida sintez qilingan birikmalarga hamda ular asosida ishlab chiqilgan biostimulyatorlarga kimyoviy tarkibi asosida yangi xalqaro tovar kod raqamlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

g'o'za chigitining unish energiyasi, unuvchanligi va hosildorligini oshirishga yordam beruvchi "And-AT" biostimulyatori yaratilgan;

ferrotsenkarbon va aminobenzoy kislota asosida olingan suvda eruvchan

aromatik hosilalarni kimyoviy tarkibi asosida sinflab, ularga yangi tovar kodlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi olingan moddalarning tozalik darajasi tekshirishda xromatografik metodlardan foydalanilganligi, ularning tarkibi va tuzilishini aniqlashda potentsiometrik titrlash, IQ-, YaMR-spektroskopiya, mass-spektrometriya metodlarining zamonaviy asbob-uskunalaridan foydalanilganligi, eksperimental natijalarning zamonaviy kvant-kimyoviy hisoblash metodi yordamida olingan natijalarga yetarli darajada mosligi, natijalarning ilmiy nashrlarda e'lon qilinganligi, amaliy natijalarni tegishli davlat tashkilotlari tomonidan tasdiqlanganligi va amaliyotga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati, ferrotsenkarbon va aminobenzoy kislotalar asosida, *o* -, *m*-, *p*-(2`-karboksiferrotsenil)benzoy kislotalar sintezi va ularning hosil bo'lishi yo'llari taklif etilganligi, shuningdek, ferrotsenkarbon va aminobenzoy kislotalar asosida suvda eruvchan hosilalar sintez qilish va ularni ajratib olish, sintez qilingan birikmalarning fizik-kimyoviy ko'rsatkichlari, biologik faolligi tadqiq etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ferrotsenkarbon va aminobenzoy kislotalar asosida sintez qilingan suvda eruvchan ba'zi yangi hosilalari qishloq xo'jaligi ekinlarini unib chiqishi va kompleks rivojlanishini tezlatish, hamda hosildorligini oshirish xususiyatiga ega ekanligi, yangi sintez qilingan biologik faol birikmalarning kimyoviy tarkibi aniqlanib, ularga tashqi iqtisodiy faoliyat tovarlar nomenklaturasi (TIF TN) bo'yicha tegishli xalqaro tovar kodlari ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ferrotsenkarbon kislotalarining aminobenzoy kislota izomerlari bilan hosilalarini sintez qilish va ularni kimyoviy tarkibidan kelib chiqib sinflash bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqot natijalari asosida:

ferrotsenkarbon kislota va *p*-aminobenzoy kislota asosida sintez qilingan yangi organik birikma tovar sifatida sinflanib, unga tashqi iqtisodiy faoliyatdagi tovarlar nomenklaturasi bo'yicha quyidagicha: "ferrotsenkarbon kislotalarining aromatik kislota qoldiqlari tutgan birikmalari" uchun – 2942 10 100 1 yangi xalqaro tovar kodi ishlab chiqilgan va O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi tomonidan amaliyotga joriy etish uchun qabul qilingan (O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasining 2024 yil 4- dekabrda 17/0524-2129-son ma'lumotnomasi). Natijada "Ferrotsenkarbon kislotalarining aromatik kislota qoldiqlari tutgan birikmalari" ni sinflash imkonini bergan;

ferrotsenkarbon kislotalarining hosilasi hisoblanadigan "And-AT" biostimulyatorini qo'llash texnologiyasi Andijon viloyatida jami 347 gektar g'oz maydonlariga joriy etilgan (Qishloq va suv xo'jaligi vazirligining 2023 yil 27 sentyabrda 22-05/4951-son ma'lumotnomasi). Natijada biostimulyator bilan ishlov berilgan g'oz maydonlarida gektaridan qo'shimcha 4,4-4,5 sentner hosil olish imkonini bergan;

ferrotsenkarbon va aminobenzoy kislotalari asosida sintez qilingan biostimulyator xossasiga ega biologik faol hosilalari tashqi iqtisodiy faoliyatdagi tovalar nomenklaturasi bo'yicha sinflanib, ularga 3808 93 900 5 yangi xalqaro tovar kodi ishlab chiqilgan va O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi tomonidan amaliyotga joriy etish uchun qabul qilingan (O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasining 2021 yil 29 yanvardagi 1/16-039-son ma'lumotnomasi). Natijada ferrotsenkarbon kislotasining suvda eruvchan aromatik hosilasini kimyoviy tarkibi bo'yicha sinflash imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 13 ta, jumladan 10 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 26 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining fan doktori (DSc) dissertatsiyalarining ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola respublika va 6 ta maqola xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rt bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 162 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob'ekti va predmetlari tavsiflangan, Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ilmiy ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Ferrotsen, monoatsetilferrotsen, ferrotsenning kislotalari va ularning hosilalari, aminobenzoy kislota izomerlari, O'zbekistonda yaratilgan fan (adabiyotlar tahlili)”** deb nomlangan birinchi bobida ferrotsen, monomonoatsetilferrotsen, ferrotsenkarbon kislota va uning hosilalari ustida olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlarining natijalari, xorijiy va mahalliy adabiyotlar tahlili yoritib berilgan. Ushbu birikmalarning reaksiya tenglamalari va sharoitlari, kimyoviy xossalari, ishlatilishi hamda ahamiyati haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Monomonoatsetilferrotsen, ferrotsenkarbon kislota, ferrotsenkarbon va aminobenzoy kislotalar bilan hosilalari sintezi, biologik faolligi hamda ularni tuzilishini tahlil qilish (natijalar muhokamasi)”** deb nomlangan ikkinchi bobida monoatsetilferrotsen, ferrotsenkarbon kislota, ferrotsenkarbon va aminobenzoy kislota izomerlari asosida *o*-, *m*-, *p*-(2'-karboksiferrotsenil)benzoy kislotalar va ularning suvda eruvchan natriy va kaliy saqlagan mono- va dialmashingan hosilalari sintez qilindi. Olingan birikmalarning tuzilishi, kimyoviy tarkibi hamda ularning biologik faolliklarini o'rganish bo'yicha

natijalar muhokama qilindi.

Ferrotsenkarbon kislota hosilalari sintezi va ularni xossalari o'rganish borasida ko'plab salmoqli ishlar amalga oshirilganligi ulardan, tabobatda, qishloq xo'jaligida va boshqa sohalarda keng foydalanib kelishiga qaramay bunday moddalarga bo'lgan ehtiyoj kundan-kunga yanada ortib borayotganini ko'rsatadi.

Ferrotsenkarbon kislotasining ta'sir doirasini yanada kengaytirish maqsadida uning yangi hosilalarini sintez qilish va fiziologik faolligini tekshirish borasida qator ishlar amalga oshirilgan. Biroq, uning aminobenzoy kislota izomerlari bilan hosilalari olinmagan va sistematik ravishda o'rganilmagan.


So'nggi yillarda ferrotsenkarbon va aminobenzoy kislotalarni o'zaro ta'sir etish mexanizmini aniqlash bo'yicha qator muvaffaqiyatlarga erishildi. Tadqiqotlar natijasida ferrotsenkarbon kislotaning aromatik kislota qoldiqlari tutgan birikmalarining suvda eruvchan hosilalari chigitning unib chiqishi va g'ozaning kompleks rivojlanishiga ijobiy ta'sir etib, paxta hosildorligini oshirishga ijobiy ta'sir etishi aniqlangan.

Ushbu tadqiqot ishini bajarish davomida monomonoatsetilferrotsen ni ajratib olish usullari takomillashtirildi, ferrotsenkarbon kislota sintezi amalga oshirildi, ferrotsenkarbon va aminobenzoy kislota izomerlari asosida *o*-, *m*-, *p*-(2'-karboksiferrotsenil)benzoy kislotalar va ularning suvda eruvchan natriy va kaliy saqlagan mono va di almashingan xosilalari olindi.

Buning uchun ishni dastlab monoatsetilferrotsen sintez qilishdan boshladik. Monoatsetilferrotsen asosan ferrotsenga alyuminiy xloridi ishtirokida kislotalarning xlorangidridlari yoki angidridlari ta'sir ettirib olinadi. $AlCl_3$ ishtirokida yonaki reaksiyalar borish ehtimoli ko'proq bo'lganligi sababli monoatsetilferrotsen olishda $SnCl_4$, H_3PO_4 kabi kislotaliligi kamroq katalizatorlar ta'sir ettirilganda yaxshi unum bilan monoatsetilferrotsen hosil bo'lishi haqidagi ma'lumotlar adabiyotlarda keltirilgan. Bunda reaksiya 100 °C da 10 minut davomida olib borilganligi, unum 70-75 % ni tashkil qilganligi aytilgan.


Yuqoridagi mulohazalarni hisobga olib biz ferrotsenga sirka angidrid ta'sir ettirib monoatsetilferrotsen olinish usulini takomillashtirib, natijada reaksiya unumini 5% ga oshirishga erishildi. Olingan monoatsetilferrotsenning unumi 80 % ni tashkil etdi.

Aralashma aseton-benzol (3:1), petroley efir:benzol (1:1) aralashmasida yupqa qatlamli xromatografiya qilindi. Xromatografik tahlil natijalariga ko'ra fikrimizcha, ferrotsen va monoatsetilferrotsen aralashma holda cho'kmaga tushadi. Cho'kmani quritilganda jigarrangli modda hosil bo'ldi. Hosil bo'lgan aralashmani konsentrlangan xlorid kislotaga o'tkazildi (ferrotsen xlorid kislotada erimaydi, balki ferrotsiniy-ion holatiga o'tadi, monoatsetilferrotsen yaxshi eriydi). So'ngra Shotta filtrida vakuum ostida filtrlab, filtratni muzli suvga quyilganda to'q sariq rangli cho'kma hosil bo'ladi. Reaksiya quyidagi sxema bo'yicha olib borildi:



Ma'lumki, organik moddalar aralashmasini bir-biridan ajratishda kolonkali xromatografiyadan keng ko'lamda foydalaniladi. Bu usul boshqa fizik-kimyoviy usullardan aniqligi va ko'p vaqt talab qilmasligi bilan afzaldir. Kolonkali xromatografiya usuli bilan hosil bo'lgan monoasetilferrosenni aralashmalardan ajratib olindi.

Monoasetilferrosenning tuzilishi IQ-spektroskopiya metodi yordamida o'rganildi. IQ-spektrning 1101, 1005 cm^{-1} dagi yutilish chiziqlari ferrosen qoldig'idagi almashinmagan siklopentadienil halqasiga, 1662, 1652 cm^{-1} dagi yutilish chiziqlari atsetil guruhdagi $>\text{C}=\text{O}$ bog'ga tegishli ekanligi reaksiya natijasida monoasetilferrosen hosil bo'lganligini tasdiqlaydi. Monoasetilferrosen ning fizik-kimyoviy ko'rsatkichlari 1-jadvalda keltirilgan.




1-rasm. Monoasetilferrosenning IQ spektri

1-jadval

Monoasetilferrosenning ayrim fizik-kimyoviy ko'rsatkichlari

Birikma	Unum, %	T.s. °C	R _f (sistema)	IQ-spektrda yutilish sohasi, cm^{-1}	
				Fc	$>\text{C}=\text{O}$
FcAc	80	86-87	0,57 (A) 0,44 (B)	1101, 1005	1662, 1652

Sistema: Atseton-benzol 3:1 (A), petroley efir-benzol 1:1 (B).




2-rasm. Monoatsetilferrotsenning mass-spektri

IQ-spektr ma'lumotlari mass-spektrometriya tahlili natijalari bilan muvofiq keladi (2-rasm). Mass-spektrda hosil bo'lgan cho'qqilarning qiymatlari quyidagi jadvalda keltirilgan.

2-jadval

Monoatsetilferrotsenning mass-spektrometrik ko'rsatkichlari

No	Formulasi	m/z	Nisbiy intensivlik %
1.	$(C_5H_5)(C_5H_4)FcCOCH_3 + H^+$	229	79
2.	$(C_5H_5)(C_5H_4)Fc^+$	186	19
3.	$(C_5H_5)(C_5H_4)FcCOCH_3^+$	228	13
4.	$2(C_5H_5)(C_5H_4)FcCOCH_3 + H^+$	457	5




3-rasm. Monoatsetilferrotsenning YaMR 1H spektri

Monoatsetilferrotsenning YaMR ^1H spektrda uch xil tipdagi protonlarning signallarini ko'rish mumkin: karbonilga bog'langan metil guruhi protonlari, ferrotsen yadrosining almashingan xalqasidagi protonlar va almashinmagan xalqasidagi protonlar. Metil guruhi protonlarining signali spektrning kuchsiz sohasida, ya'ni 2,77 m.u. da singlet shaklida, almashinmagan xalqadagi protonlar signali 7,25 m.u. sohada singlet shaklida ko'rinadi. Ferrotsenning almashingan xalqasidagi karbonil guruh ta'sida bo'lgan protonlar signallari 7,0 va 7,7 hamda 7,7 va 7,75 m.u. da singlet shaklida ko'rinadi. Shuningdek, spektrda erituvchiga xos bo'lgan singlet signalni ham ko'rish mumkin.

Ferrotsenkarbon kislota sintezi bo'yicha ko'p olimlar izlanishlar olib borganlar va turli-xil usullar yordamida kislota sintez qilishga erishganlar. Adabiyotlardagi ma'lumotlarga ko'ra ferrotsenkarbon kislota sintezini ayrim fizik-kimyoviy ko'rsatkichlari yetarli darajada yoritilmagan.

Shu ma'lumotlarga tayanib biz monoatsetilferrotsenni natriy gipobromit bilan oksidlash yo'li bilan ferrotsenkarbon kislota sintezini takomillashtirilgan yangi usulini ishlab chiqishga erishdik. Bunda kislota sintezini tuzlarga o'tkazib ajratib olish usulidan foydalandik. Hosil bo'lgan ferrotsenkarbon kislota sintezini natriyli tuziga konsentrlangan xlorid kislota sintezidan oz-ozdan neytral muhit hosil bo'lguncha qo'shganimizda ferrotsenkarbon kislota sintezini cho'kmaga tushadi. Bu usulni afzalligi adabiyotlarda keltirilgan usullarga nisbatan kam vaqt sarflanishi va mahsulot unumini 1,5 barobar oshirilishi bilan izohlanadi.


Oksidlash reaksiyasi quyidagi sxema bo'yicha amalga oshirildi:



Ferrotsen hosilasi bo'lgan monoatsetilferrotsenni oksidlab ferrotsenkarbon kislota sintezini yangi sintez usuli ishlab chiqildi.

Qo'yilgan maqsadga muvofiq ishimizning keyingi bosqichi ferrotsenkarbon kislota sintezini aminobenzoy kislota izomerlari bilan hosilasini olish edi. Adabiyotlarda bunday birikmalar olinganligi haqida ma'lumotlarga duch kelmadik. Ferrotsenkarbon kislota sintezini aminobenzoy kislota izomerlari yordamida arillash reaksiyasi diazotirlash usuli bilan amalga oshirildi.

Ferrotsenkarbon kislota sintezini yangi birikmalarini olish bo'yicha tadqiqotlarni davom ettirib ferrotsenkarbon kislota sintezini *p*-aminobenzoy kislota bilan diazotirlash reaksiyasi dietilefirli muhitda, natriy nitrit va xlorid kislota ishtirokida amalga oshirildi. Natijada ferrotsenkarbon kislota sintezini geteroannulyar almashingan birikmasi hosil bo'ldi. Kvant-kimyoviy hisoblash metodidan foydalangan holda, ferrotsenkarbon kislota va *p*-aminobenzoy kislota orasidagi reaksiya mahsulotining tuzilishini energetik jihatdan asoslash uchun mumkin bo'lgan barcha izomerlarning strukturalari tuzildi. Ushbu izomerlar strukturalarining sxemalari quyida berilgan:



1-sxema. *p*-(2'-karboksiferrotsenil)benzoy kislotaning mumkin bo'lgan 1, 2, 3, 4, 5 izomerlari modellari

Mahsulotning tuzilishi qaysi izomerga mos ekanligini aniqlash maqsadida, mumkin bo'lgan 1, 2, 3, 4 va 5 izomerlarning optimallashtirilgan strukturalarini Hartri energiyalari ($E_{\text{hart.}}$) "Gaussian 98" dasturlar paketi DFT/B3LYP gibrid metodi 3-21G bazisini qo'llagan holda hisoblab topilib, ular orasidagi farqlar (ΔE) aniqlandi. Hisoblash natijalari 3-jadvalda keltirilgan.

Hisoblash natijalari mahsulotning 1, 2, 3, 4 va 5 izomerlari orasidan birinchi izomerning energiyasi boshqa izomerlariga nisbatan energetik jixatdan termodinamik barqaror. Shunga asosan ferrotsenkarbon kislotaning *p*-aminobenzoy kislota bilan reaksiyaning asosiy mahsuloti, tuzilishi jixatdan birinchi strukturaga mos keladi deb xulosa qilish mumkin.


3-jadval

Ferrotsenkarbon kislota va *p*-aminobenzoy kislota o'rtasidagi reaksiya mahsulotining izomerlarini o'timallashtirilgan strukturalarining Hartri energiyalari va ular orasidagi farqlar

Izomerlar	$E_{\text{Hart.}}$, kJ/mol	ΔE (J)	Dipol momenti
1	-2247,1399	0	2,7363
2	-2247,1366	0,33	4,1586
3	-2247,1360	0,39	3,1630
4	-2247,1367	0,32	5,4649
5	-2247,1377	0,22	5,3361


Reaksiya mahsulotlarini dastlab yupqa qatlamli xromotografiya usuli bilan tekshirildi va kolonkali xromotografiya yordamida ajratildi. Birikmani qo'shimcha moddalardan tozalash uchun mahsulotni dioksan-etil spirt 2:1(A), xloroform-geptan 1:3(B) nisbatdagi eritmalaridan elyuent sifatida foydalanib xromotografiya qilindi. Asosiy modda *p*-(2'-karboksiferrotsenil)benzoy kislotaning chiqish unumi 65 % ni tashkil etdi. Sintez qilingan birikmani molekulyar tuzilishini aniqlash uchun ularni infraqizil spektrlari va mass-spektrlari olinib tahlil qilindi. *p*-(2'-karboksiferrotsenil)benzoy kislotaning IQ-spektridagi tajribada kuzatilgan yutilish cho'qqilari to'lqin soni qiymatlari molekuladagi tegishli tebranishlar uchun kvant kimyoviy hisoblangan yutilish sohalari maksimumi to'lqin soni qiymatlariga taqqoslandi. Taqqoslash natijalari 4-jadvalda keltirilgan. Natijalar tahlilidan *p*-(2'-karboksiferrotsenil) benzoy kislotaning tajribada o'lchangan IQ-spektrdagi yutilish

sohalarini to'liq sonlari qiymatlari biz tahmin qilgan tuzilishli molekula uchun kvant-kimyoviy hisoblangan qiymatlarga mos kelishi ma'lum bo'ldi. *p*-(2'-karboksiferrotsenil)benzoy kislotasi IQ spektrining 1157 va 1030 cm^{-1} sohalaridagi yutilish chiziqlari geteroannulyar dialmashigan ferrotsenil guruhiga mansub, 3462 cm^{-1} dagi keng yutilish chizig'i dimer holatidagi $-\text{OH}$ guruhlariga xos, 2873, 2627 cm^{-1} sohalaridagi yutilish chiziqlari karboksil guruhning $-\text{OH}$ guruhiga tegishli, spektrning 834 cm^{-1} sohasida 1,4-dialmashigan benzol halqasining deformatsion tebranishlariga xos yutilish chizig'i, shuningdek, 1650 cm^{-1} sohasida $-\text{COOH}$ ning $>\text{C}=\text{O}$ guruhi tebranishlariga tegishli yutilish chiziqlari mavjudligidan dalolat beradi. Sintez qilingan birikmaning IQ spektri 4-rasmda ko'rsatilgan.



4-rasm. *p*-(2'-karboksiferrotsenil)benzoy kislotaning IQ spektri.

Sintez qilib olingan *p*-(2'-karboksiferrotsenil)benzoy kislotaning tajribada kuzatilgan yutilish cho'qqilari to'liq soni qiymatlarini taqqoslash uchun kvant-kimyoviy hisoblangan IQ spektri olindi (5-rasm).



5-rasm. *p*-(2'-karboksiferrotsenil)benzoy kislotaning kvant kimyoviy hisoblangan IQ spektri (Gaussian 98)


Jadvalda keltirilgan ma'lumotlar *p*-(2'-karboksiferrotsenil)benzoy kislotaning tajribada olingan spektdagi yutilish sohalarini to'liq sonlari, kvant kimyoviy

hisoblash natijasida olingan spektrdagi yutilish sohalari to'liq sonlariga mos kelishini tasdiqlaydi. 6-rasmda sintez qilib olingan *p*-(2'-karboksiferrotsenil)benzoy kislotaning Gaussian 98 dasturi yordamida o'timallashtirilgan molekulyar tuzilishi ko'rsatilgan.

4-jadval

p-(2'-karboksiferrotsenil)benzoy kislotaning IQ-spektrida tajribada kuzatilgan cho'qqilar to'liq soni va molekula turli izomerlarining tegishli tebranishga mos keluvchi soxasi maksimumi to'liq sonining hisoblangan qiymatlari sm^{-1}


№	Tebranish turi	Yutilish sohasi maksimumi to'liq soni, sm^{-1}					O'lchangan
		Hisoblangan					
		1	2	3	4	5	
1.	Fc v(CCC)	382	375	381	431	380	386
2.	Fc v(C-Fe)	429	421	420	445	417	425
3.	v(CH')	481	458	457	490	457	480
4.	Fc v(CCC)	511	516	515	522	518	509
5.	Fc v(CCC)	561	564	561	560	539	563
6.	v(COO')	597	618	616	623	582	598
7.	vC'(CH)	740	739	727	743	736	740
8.	δ C'(CH)	783	780	779	792	786	783
9.	s vC'2(CH)	838	848	816	823	812	834
10.	vC'2(CH)	914	915	914	917	897	914
11.	δ C'(CC)	939	958	957	943	927	935
12.	δ C'2(CC)	1053	1035	1037	1043	1036	1052
13.	vs'(CH)	1108	1123	1123	1097	1138	1108
14.	vC'2(CH)	1213	1199	1193	1196	1192	1220
15.	s vC'1(CH)	1277	1255	1254	1274	1262	1280
16.	as v δ (CO)	1651	1595	1594	1591	1593	1650
17.	δ (O')	3370	3418	3400	3400	3408	3350



6-rasm *p*-(2'-karboksiferrotsenil)benzoy kislotaning kvant-mexanik hisoblab optimallashtirilgan molekulyar strukturasi.


Olingan IQ-spektr ma'lumotlari Mass-spektrometriya tahlillari natijalari bilan taqqoslandi. Tahlil natijalariga asosan diazotirlash reaksiyasi natijasida *p*-(2'-

karboksiferrotsenil)benzoy kislota (mahsulot 1) hosil bo'lganligini ko'rishimiz mumkin(7-rasm).



7-rasm *p*-(2'-karboksiferrotsenil)benzoy kislotaning mass-spektri.

Fragmentlanishni quyidagi 3-sxema orqali ifodalashimiz mumkin:




Mass-spektrda hosil bo'lgan molekula va ionlarning m/z qiymatlari 5-jadvalda keltirilgan.

5-jadval

p-(2'-karboksiferrotsenil)benzoy kislotaning mass-spektrometrik ko'rsatkichlari

№	Fragmentlar	m/z	Nisbiy intensivlik %
1.	$(C_5H_4)_2Fe(C_6H_4)$	259	100%
2.	$(C_5H_4)(C_5H_5)FeCO\cdot$	213	58%
3.	$(C_5H_4)_2FeCO\cdot(C_6H_4)-CO\cdot$	316	48%
4.	$(C_5H_5)_2Fe$	186	38%
5.	$(C_5H_4)C_5H_5FeCOOH$	229	25%
6.	$(C_5H_4)_2FeCOOH(C_6H_4)-COOH$	349	20%

Spektral ma'lumotlarga asosan olingan moddaning hosil bo'lishi quyidagi reaksiya sxemasi bo'yicha borishini ko'rsatish mumkin:



2-sxema. *p*-(2`-karboksiferrosenil)benzoy kislotaning hosil bo`lish reaksiya sxemasi.

Sintez qilingan birikmaning tarkibi va ayrim xossalarni o`rganish 6-jadvalda berilgan.

6-jadval

p-(2`-karboksiferrosenil)benzoy kislotaning ayrim fizik-kimyoviy ko`rsatkichlari

Birikma	Unum, %	T.s. °C	R _f (sistema)	IQ-spektrda yutilish sohasi, sm ⁻¹	
				Fc	Boshqa chastotalar
C ₁₈ H ₁₄ FeO ₄	65	172-173	0,35 (A), 0,52 (B)	1157, 1030	3462, 2880, 2625 (-OH) 1650 (>C=O), 834 (-C ₆ H ₄)

Sistema: dioksan-etil spirt 2:1 (A), xloroform-geptan 1:3 (B).

Olingan kislotani asidimetrik titrlash. *p*-(2`-karboksiferrosenil)benzoy kislotaning ekvivalent massalari kislotasosli titrlash yo`li bilan aniqlandi. Tekshirilayotgan kislotalar suvda yomon eriganligi uchun titrlash spirt muhitida o`tkazildi. Titrlash uchun 0,2 n li HCl eritmasida standartlangan NaOH, KOH larning spirtidagi eritmalaridan foydalanildi. Titrlashning ekvivalent nuqtasi *p*-(2`-karboksiferrosenil)benzoy kislotada pH=9,1 va pH=10,2 ga teng bo`ldi.

Olingan natijalar 7-jadvalda keltirilgan.

7-jadval

p-(2`-karboksiferrosenil)benzoy kislotani atsidimetrik titrlash usuli bilan aniqlangan ekvivalent massalari

Birikma	NaOH (0,096 n)		KOH (0,084 n)	
	V, ml	E, g/ekv	V, ml	E, g/ekv
C ₁₈ H ₁₄ FeO ₄	24,67	175,15	23,42	173,77
	24,72	174,80	23,12	176,03
	24,65	175,29	23,16	175,72
O`rtacha	24,68±0,04	175,08±0,26	23,23±0,16	175,18±1,22

p-(2`-karboksiferrosenil)benzoy kislotaning tajribada topilgan ekvivalent massasi uning hisoblangan ekvivalent massasiga (175,075 g/ekv mos ravishda) yaqin ekanligini ko`rsatdi. Kislotalarning ekvivalent massalari quyidagi formula bo`yicha hisoblandi:

$$E_k = \frac{m_k}{N_{ishqor} \cdot V_{ishqor}} \cdot 1000$$

Bu yerda m_k – kislota namunasi massasi, g;

N_{ishqor} – Ishqorning ekvivalent konsentratsiyasi, ekv/l;


V_{ishqor} – tirlash uchun sarflangan ishqor eritmasi hajmi, ml.

Titrlash xatoligi *p*-(2`-karboksiferrosenil)benzoy kislota uchun 1,08 % dan oshmaydi.

Ferrotsenkarbon kislotaning *o*-, *m*- va *p*- (2`-karboksiferrosenil)benzoy kislotalar asosida olingan suvda eruvchan hosilalari sintezi. Sintez qilib olingan *o*-, *m*- va *p*- (2`-karboksiferrotsenil)benzoy kislotalar suvda juda kam eruvchan moddalar bo`lganligi uchun ham ularni suvda eruvchan shaklga o`tgazish lozim. Ularning Na va K li mono – va dialmashingan hosilalari suvda yaxshi eriydi.

Monoalmashingan tuzlarni olish uchun dastlab olingan *o*-, *m*- va *p*- (2`-karboksiferrotsenil)benzoy kislotalar metallarning gidroksidlari yoki gidrokarbonat tuzlari bilan o`zaro ta`sir ettirildi.

p-(2`-karboksiferrotsenil)benzoy kislotani monoalmashingan tuzlarning sintezi umumiy tarzda quyidagi 5-sxema bo`yicha olib borildi:




8-jadval

p-(2`-karboksiferrotsenil)benzoy kislotani monoalmashingan kaliyli va natriy tuzlarining ayrim fizik-kimyoviy ko`rsatkichlari

№	Birikma	Unum, %	T.s. °C
1.	$C_{18}H_{13}FeKO_4$	89	288-290
2.	$C_{18}H_{13}FeNaO_4$	91	245-247

p-(2`-karboksiferrotsenil)benzoy kislotani suvda eruvchan dialmashingan K, Na tuzlarini olish uchun kislotaga tegishli ishqor eritmalari ta`sir ettirilib sintez qilindi. Olingan moddalardan eng yuqori unum bilan kaliyli tuz hosil bo`ldi.

Umumiy tarzda sintez quyidagi 6-sxema bo`yicha olib borildi:



Olingan tuzlarning ayrim fizik-kimyoviy ko`rsatkichlari 9-jadvalda keltirilgan.

p-(2`-karboksiferrotsenil)benzoy kislotani dialmashingan kaliyli va natriyli tuzlarining fizik-kimyoviy ko'rsatkichlari

№	Birikma	Unum, %	T.s., °C
1.	C ₁₈ H ₁₂ FeK ₂ O ₄ .	95	>300
2.	C ₁₈ H ₁₂ FeNa ₂ O ₄ .	91	>300

Sintez qilingan birikmalarning biologik faolligini laboratoriyada o'rganish. Andijon davlat universiteti huzuridagi "Tovarlar kimyosi va Xalq tabobati ilmiy-tadqiqotlar markazi" laboratoriyasida ferrotsenkarbon va aminobenzoy kislotalar asosida biostimulyatorlarni yangi avlodini yaratish maqsadida olib borilgan tadqiqotlarimiz natijasida ferrotsenkarbon va aminobenzoy kislotalar asosida bir qator biologik faol birikmalarini sintez qilishga erishdik. Sintez qilingan birikmalarni yangi biostimulyator sifatida chigitni unib chiqish jarayonida bir necha tajribalar asosida sinab ko'rildi hamda amaliyotga joriy etildi. Sintez qilingan birikmalarning biologik faolligi Kalinkevich usuli yordamida aniqlandi. O'simlik urug'i solinadigan petri kosachalar raqamlandi va ularning ichiga filtr qog'oz solindi. Uning ustiga saralangan urug'lar bir tekisda terib qo'yildi. So'ngra tekshirilayotgan preparatning oldindan tayyorlangan 0.1, 0.01, 0.001 % konsentratsiyadagi teng hajmdagi eritmaları solingan urug'lar ustiga quyildi. Nazorat tajriba uchun distillangan suv, etalon sifatida esa keng qo'llanilayotgan biologik faol moddalar MIVAL eritmasidan foydalanildi. Har bir sinov tajribasi kamida ikkita parallel tarzda, yonma-yon joylangan kosachalarda o'tkazildi va o'rtacha natija olindi. Bir sutkadan keyin har kuni bir xil vaqtda urug'lar distillangan suv bilan namlab turildi. Tekshirish yetti kungacha davom etdi. Unib chiqqan urug'larning soni ekilgan kundan 3 kun o'tkazib unish energiyasini aniqlash uchun, 5 kundan keyin esa - unuvchanlikni aniqlash uchun sanaldi.

